

2. Association of Colleges. Association of Colleges' survey on students with mental health conditions in further education. London: 2017.
3. Mayer FB, Santos IS, Silveira PSP, et al. Factors associated to depression and anxiety in medical students: a multicenter study. BMC Med Educ.2016;16:282. Doi: 10.1186/s12909-016-0791-1. <https://doi.org/10.1186/s12909-016-0791-1>
4. Arnett JJ. Emerging adulthood. A theory of development from the late teens through the twenties. Am Psychol. 2000;55(5):469-80.
<https://psycnet.apa.org/journals/amp/55/5/469.html?uid=2000-15413-004>
5. College students: Mental health problems and treatment considerations by Paola Pedrelli, Maren Nyer, Albert Yeung, Courtney Zulauf, Timothy Wilens;2014 Aug 21;39(5):503–511. doi: 10.1007/s40596-014-0205-9 <https://doi.org/10.1007/s40596-014-0205-9>

YOSHLARGA E'TIBOR - KELAJAK SIFATI

Yuldasheva L.,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti talabasi

Ilmiy maslahatchi: Keulimjaeva G.K.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining ingliz tili o'qituvchisi.

Yosh avlod - har qaysi jamiyatning ertasi, kelajak tayanchi hisoblanadi. Shu bois, yoshlarning tarbiyasi, bilim olishi, ularning ichki dunyosi va ehtiyojlariga nisbatan e'tiborli bo'lish har bir oila, ta'lim muassasasi va jamiyat uchun muhim masaladir. "Har bir jamiyat o'z kelajagini bugungi yoshlarga bo'lgan munosabat orqali quradi" - deb yoziladi UNESCO xisobotida [1].

Kopincha ota-onalar farzandlariga moddiy tomondan barcha sharoitlarni yaratib berishni yetarli deb hisoblaydilar. Ular "farzandim nima desa olib beryapman, demak, yaxshi ota-onaman" deb o'ylashadi. Ammo bolalar uchun mehr, ruhiy yaqinlik, tushunish, hamdardlik va doimiy suhbatlar moddiy ne'matlardan ham muhimroqdir. Farzandlar bilan ochiq va ishonchli muloqot nafaqat oiladagi sog'lom muhitni ta'minlaydi, balki ularning ruhiy rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi [2].

Misol uchun men ham hozir o'qish sababli ota-onamdan yiroqdaman. Har kuni ular bilan gaplashmasam, o'zimni yolg'iz his qilaman. Ularning e'tibori va suhbatlari menga kuch va motivatsiya beradi. "Mehr va e'tibor - bu bolalarning asosiy ehtiyoji", deb ta'kidlaydi oilaviy psixolog V. Satir [3].

Bugungi kunda yoshlar orasida jinoyatchilik, ruhiy tushkunlik, agressiya kabi holatlarning ko'payishi ham ko'p jihatdan e'tiborsizlik va muhit ta'siri bilan bog'liq. Sog'lom ijtimoiy muhit, oiladagi psixologik qo'llab-quvvatlash va ta'limdagi adolat yoshlarning ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) tadqiqotlariga ko'ra, yoshlar orasidagi ruhiy salomatlik muammolari ko'pincha oilaviy befarqlik tufayli yuzaga kelmoqda [4].

Ta'lim tizimi ham yoshlar tarbiyasida beqiyos o'rin egallaydi. Maktab va universitetdagi o'qituvchilar nafaqat dars o'tadilar, balki o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va ruhiy holatlari bilan ham qiziqishlari kerak. Afsuski, ayrim pedagoglar o'quvchining ijtimoiy kelib chiqishi yoki tashqi ko'rinishiga asoslanib munosabat bildirishadi. Bu esa yoshlar qalbida ishonchsizlik, norozilik, hatto dushmanlik uyg'otadi.

Men boshlang'ich sinfda o'qigan paytim shunday holatni boshimdan o'tkazdim. Oilamda sharoit o'rtacha bo'lib, rangli qalam va shunga o'xshash narsalarim yo'q edi. O'sha o'qituvchi menga e'tibor bermas va boshqacha munosabatda bo'lardi. Shu sabab maktabga borgim kelmasdi, bir kunlari o'tirib yig'lardim. Keyin u ketib, o'rniga juda ajoyib ustoz keldi. U har xil medodlar bilan dars o'tardi, sovg'alar, faxriy yorliqlar berardi, u hech kimni ajratmasdi. Va shundan keyin menda yana o'qishga bo'lgan qiziqish oshdi. Bu misol orqali shuni angladimki, bitta ustozning mehrli yondashuvi butun hayotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Afsuski, ba'zi yoshlar e'tiborsiz muhitda ulg'aygani uchun noto'g'ri yo'lni tanab qo'yishadi. Mening sinfdoshim bor edi. Ota-onasi ajrashgan, buvisinikida yashardi. Otasi haydovchi, onasi chet elga ishlashga ketgan. Buvisi esa unga mehr, e'tibor bermasdi. Bu bola yolg'iz e'tiborsiz holda o'sdi. U nos chekish, ichkilik va hatto taqiqlangan moddalar bilan tanishdi. Bir kuni u janjal tufayli birovning burnini sindirib, hatto sudlandi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, "Mehrsiz muhitda o'sgan yoshlar o'rtasida xatarli odatlar tarqalishi ikki baravar yuqori bo'ladi"[5]. Aslida u aqlli, bilimga chanqoq bola edi. Ammo muhit, ota-onaning e'tiborsizligi uning taqdirini o'zgartirib yubordi. Maktabni zo'rg'a bitirdi. Uning taqdirini hali noma'lum, lekin u hali ham to'g'ri yo'lga qaytishi mumkin. Buning uchun jamiyat yordami, ijobiy muhit va insoniy yondashuv zarur.

Yoshlar tarbiyasida jamiyat va mahallaning o'rni ham muhim. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yosh avlodga g'amxorlik - bu Vatan kelajagi uchun sarmoyadir [6]. Ayni vaqtda O'zbekistonda "Yoshlar daftari", "Yoshlar jamg'armasi" kabi loyihalar yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga imkoniyat yaratish yo'lida xizmat qilmoqda [7].

Yosh avlodning barkamol va sog'lom rivojlanishi - nafaqat oila, balki jamiyat, ta'lim muassasali va davlat siyosatining ham mas'uliyatidir. Ota-onalar farzandlariga nafaqat moddiy balki ma'naviy ham ruhiy e'tiborni ham ko'rsatishlari lozim. O'qituvchilar va pedagoglar esa yoshlarning nafaqat bilim darajasi, balki hissiy holati bilan ham ishlashi kerak.

Bugungi kunda yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish, ularni to'g'ri yo'naltirish, kerakli bilim va tarbiya berish uchun mehr va e'tibor eng muhim vositadir. "Kelajak yoshlar qo'lida" degan so'zlar amalda namoyon bo'lishi uchun ularni tinglash, tushunish, qadrlash va qo'llab-quvvatlashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNESCO Global Education Monitoring Report, 2023.
2. Milliy tadqiqot: "O'zbek oilalarida - psixologik iqlim", Ijtimoiy fanlar inistituti, 2022.
3. Satir V "Oila va bolalar bilan muloqot", Moskva, 2021.
4. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) - Youth Mental Health Report, 2022.
5. "Adverse Childhood Experiences and Toxic Stress", Geneva, 2021.
6. Sh. Mirziyoyev "Yoshlar - ertangi kunimizning tayanchi", Nutq, 2020.
7. O'zbekistonda Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hisobotlari, 2023.

YOSHLAR ORASIDA EKOLOGIK MADANYATNI SHAKILLANISHDA TA'LIM TARBIYANING O'RNI

Yuldashova X.R.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 2-kurs talabasi

Xabibullaev A.J.

dotsent, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus

Dunyo kundan kunga ko'plab ekologik muammolarga duch keladi. Aholi sonining o'sishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining ortishi oqibatida er yuzida qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Shu bois, bugungi kunda sof tabiat haqida gap yuritish mushkul. Er yuzidagi o'rmonlar ko'payish o'rniga tobora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, tabiat va havo har xil chiqindi hamda gazlar hisobiga ifloslanyapti. Bundan tashqari, tabiatda toshqinlar, o'rmon yong'inlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz bermoqda. Bularning barchasi pirovardida tabiat muvozanatiga putur etkazyapti

Havo tarkibida karbonat angidridning oshishi, chiqindi gazlarning me'yoridan ortiq havoga chiqarib tashlanishi oqibatida issiqxona effekti hosil bo'lib, bugungi kunda jahon hamjamiyatini